


SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	57 072 116,8 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	53 808 116,7 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-noyabr)	10 228 99,4 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



■ 2021-y. ■ 2022-y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,3** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



9,1 foizga oshdi




12,1 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **1,3** foizga kamaydi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **12,6** foizga oshdi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




7,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




9,8 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




5,3 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **13,5** foizga oshdi








Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **0,5** foizga oshdi




(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 11 204 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 656 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 469 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 546 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 218 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,8 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 717 tani tashkil etib, ulardan 704 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 63 taga yoki 9,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida 78 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar- noyabr oylarida, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	704	448	256
<i>Afg'oniston</i>	54	23	32
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	99	71	28
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	37	21	16
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	19	13	6
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	48	35	13
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	112	67	45
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	18	13	5
<i>Turkiya Respublikasi</i>	124	69	55
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari</i>	22	16	6
<i>Boshqalar</i>	171	120	50

Viloyatda 2022- yil 1- dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 704 tani tashkil etadi, shundan 448 tasi qo'shma korxonalar, 256 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Turkiya Respublikasi 124 ta, shundan 69 tasi qo'shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 99 ta, shundan 71 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 112 ta, shundan 67 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Turkiya Respublikasi 17,6 %, Xitoy Xalq Respublikasi 14,1 %, Rossiya Federatsiyasi 15,9 %, Afg'oniston 7,7 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,8 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,1 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	704	448	256
Samarqand sh	327	184	143
Kattaqo'rg'on sh	25	20	5
tumanlar:			
Oqdaryo	33	23	10
Bulung'ur	24	12	12
Jomboy	48	34	14
Ishtixon	18	12	6
Kattaqo'rg'on	16	10	6
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	5	3	2
Payariq	18	10	8
Pastdarg'om	35	25	10
Paxtachi	10	6	4
Samarqand	40	31	9
Nurobod	13	12	1
Urgut	56	46	10
Toyloq	14	10	4

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15





2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 57 072 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Samarqand shahrida (28,2%), Urgut (8,5%), Pastdarg'om (8,5%), Samarqand (7,3%), Ishtixon (5,4%), Payariq (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,2%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,4%), Bulung'ur (4,3%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,1%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 9 486 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (24,2%), Pastdarg'om (9,0%), Urgut (8,5%), Samarqand (8,0%), Ishtixon (6,0%), Oqdaryo (5,2%), Kattaqo'rg'on (5,3%), Payariq (4,9%), Toyloq (4,8%), Bulung'ur (5,0%), Jomboy (4,3%), Nurobod (3,8%), Narpay (3,0%), Paxtachi (2,8%), Kattaqo'rg'on shahri (2,9%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari ulushiga tegishli.







2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 2 218 korxonalarning viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (16,6 %), Kattaqo'rg'on (11,9%), Pastdarg'om (10,4%), Payariq (11,0%), Samarqand (7,9%), Bulung'ur (7,1%), Urgut (5,5%), Jomboy (4,7%), Oqdaryo (4,6%), Ishtixon (4,4%), Toyloq (4,5 %), Narpay (3,8 %), Paxtachi (3,5 %), Qo'shrabot (1,9%), Kattaqo'rg'on shahar (1,7 %), va Nurobod (0,5 %) tumanlari ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**

Tel.: 66 235-14-42